

## KUN TARTIBI:

### **Qurilish materiallari, xususan sement ishlab chiqarish sohasida raqobat holati, islohotlar va istiqbolli rejalar to‘g‘risida**

(F. Karabayev, B.Ismoilov, U.Davlatov, B.Xodjabekov, I.Sevinchov, F. Karabayev)

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi “O‘zsanoatqurilishmaterillari” uyushmasi bilan hamkorlikda “Qurilish materiallari sohasi: yangi taklif va tashabbuslar” mavzusida ochiq muloqot tashkil etildi.

Mazkur davra suhbatida **23 ta** sement ishlab chiqaruvchilar, **10 ta** importyorlar, **21 ta** yirik qurilish korxonalar, **10 ta** vazirlilik va idoralar mas’ul vakillari hamda **11 ta** hududiy boshqarma xodimlari, **jami** tadbirda **75 kishi ishtirok etdi**.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldaggi PF-108-son “Ma’muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 3-bandiga muvofiq, “**Biz sizni eshitamiz!**” loyihasi joriy etilgan va ushbu loyihaning asosiy maqsadi tarmoqdagi tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, raqobatga to‘sinq bo‘layotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tizimini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Tadbir boshida Raqobat qo‘mitasi raisi o‘rinbosari **F.Karabayev** davrani ochib berdi hamda Qo‘mittanig Tovar-xom ashyo birjalari va iste’mol bozorida narxlarni nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i **U.Davlatov** tomonidan “Biz sizni eshitamiz!” loyihasida “Sement bozori raqobatbardoshligi” bo‘yicha so‘z boshladi. U.Davlatovning so‘zlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga asosan sement mahsulotini ichki bozorda realizatsiya qilishda:

- monopol va davlat ishtirokidagi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan sement hajmining **100 foizi**;
- monopol bo‘limgan va (yoki) ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi **50 foizdan kam bo‘lgan** yoki davlat ulushi mavjud bo‘limgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarish hajmining kamida **50 foizi** faqat birja savdolari orqali sotilishi belgilanganligi,

Qurilish materiallari ishlab chiqarishda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish hamda ichki bozorni sifatli sement bilan uzliksiz ta’minlash maqsadida mazkur sohani rivojlantirish uchun bir qator **imtiyozlar berilganligi**,

Birja savdolarida yuqori likvidli va monopol turdagи mahsulotlarni, shu jumladan sement mahsulotini realizatsiya qilishda hukumat qarorlari asosida sotuvchilarga bir qator majburiyatlar belgilanganligi,

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni va qonunosti hujjalarda birja savdolarini o‘tkazish chog‘ida raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday harakatlar taqilanganligini, shuningdek, Qonunning mazmun-mohiyati va uning raqamli bozorlarga tatbiq etilishi, raqobat siyosatidagi konseptual o‘zgarishlar, shu bilan bir qatorda ushbu sohadagi mavjud tizimli muammolar hamda ularning yechimlari haqida batafsil ta’kidlab o‘tildi.

**1.** O‘zsanoatqurilishmaterillari” uyushmasi boshqaruv raisi o‘rinbosari **B.Ismoilov** o‘z kirish so‘zida bugungi kunning dolzarb mavzusidagi mazkur tadbirni tashkillashtirganliklari va yaqindan yordam bergenliklari uchun qo‘mita va hamkor tashkilotlarga o‘z minnatdorchilagini bildirib, hozirda mavjud muammolar bo‘yicha korxonalarga kelgusi yilda gaz va ko‘mirga o‘tishi, eksport,

va hamkor tashkilotlarga o‘z minnatdorchilagini bildirib, hozirda mavjud muammolar bo‘yicha korxonalarga kelgusi yilda gaz va ko‘mirga o‘tishi, eksport, import hamda ishlab chiqarishda sotuvning tushiganligi va buning oqibatida bazi bir korxonalarining faoliyatini to‘xtatganligini aytib o‘tdi. So‘zi yakunida bu muammolar bo‘yicha ishlanyotganligi va yaqin kunlarda yaxshi yangiliklar bo‘lishini ma’lum qildi.

**2.** Shundan so‘ng “**Qoraqalpok sement**” MChJ tomonidan bugungi kunda sement mahsulotining kamida 50 foizini birja savdolari orqali sotish bo‘yicha majburiy talab faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilarga tadbiq etilishi, bunda mazkur talab importyorlarga nisbatan tadbiq etilmasligi natijasida sohada noteng raqobat muhiti shakllanganligi bildirildi.

Shuningdek, boshqa korxonalar tomonidan sement mahsulotini birja savdolari orqali sotishda majburiy qo‘yish stavkasini 50% dan 25% ga tushirish yoki bekor qilish masalasini ko‘rib chiqish taklif etildi.

**3. “Ohangaronsement” AJ** tomonidan sement mahsulotini majburiy birja savdolari orqali sotish talabi narxlarning oshishiga sabab bo‘lishi, bundan tashqari bugungi kunda mahsulotni muddatli to‘lov shartlari asosida sotish imkoniyati birja savdolarida mavjud emasligi, sotilmay qolgan hajmlarni qayta qo‘yishda muayyan muddat belgilanmaganligi kabi tizimli muammolar mavjudligi bildirildi.

**4. Sement ishlab chiqaruvchilar uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi** ikki baravar kamaytirilib, bugungi kunda sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktosh 22 500 so‘m/tonna belgilangan bo‘lib, jami yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning ohaktosh qiymatidagi ulushi yuqoriligidcha (75 foiz) saqlanmoqda.

*Mazkur ko‘rsatkich qo‘shni Qirg‘izistonda 3 foizni, Qozog‘istonda 5 foizni, Tojikistonda 7 foizni, Turkmanistonda 50 foizni tashkil etishi ma’lum qilindi.*

Misol uchun: “Bekobodsement” AJ va boshqa bir qator ishlab chiqaruvchilar tomonidan ohaktosh uchun belgilangan soliq stavkasi (“nalog na nedra”) qo‘shni mamlakatlarga nisbatan yuqoriligini hamda Jamiat tomonidan xom-ashyo 150 km masofadan ishlab chiqarish zavodiga tashilishi ma’lum qilindi.

“Bekobodsement” va boshqa bir qator ishlab chiqaruvchilar tomonidan **ohaktosh uchun belgilangan soliq stavkasi (“nalog na nedra”)** qo‘shni mamlakatlarga nisbatan **yuqoriligi bildirildi..**

**Soliq qo‘mitasi vakili** tomonidan noruda soliqlar Soliq kodeksining 452-moddasida nazarda tutilganligi, 2023 yil uchun jami qurilish sohasida noruda qazilmalardan **soliq tushumi prognozi** jami 755 mlrd so‘mni, shundan **sement** mahsuloti hissasiga **450 mlrd** so‘m to‘g‘ri kelishi ma’lum qilindi. Biroq, bugungi kundagi gaz bilan bog‘liq muammolar hisobiga amalda ishlab chiqarish hajmi proqnoz ko‘rsatkichlariga erishilmasligiga sabab bo‘layotganligi, **soliq yukining rentabellikka ta’sir qilishi holatidan kelib chiqib** Soliq stavkasi qayta ko‘rib chiqilishi bunda takliflar **Iqtisodiyot va moliya vazirligi** tomonidan ko‘rib chiqilishi ma’lum qilindi.

**5.** Keyingi so‘zni “**Maroqand sement invest**” MCHJdan F.Samiyev olib - ko‘mirga otishda muammolar borligi, gaz boyicha limit atigi 1 haftaga yetayotganligi va bank kreditlar olinganligi natijasida moliyaviy ahvoli bankrotlik darajasiga kelib qolganligini aytdi. Korxona tomonidan gazni yetkazib berishni 20 foizga oshirish bo‘yicha yordam so‘raldi.

O‘zsanoatqurilishmaterillari” uyushmasi boshqaruv raisi o‘rinbosari **B.Ismoilov** so‘zga chiqib, aytilgan muammolar bo‘yicha ishlar olib borilaotganligini ammo O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 16 fevraldagi PQ-57-sonli qarori bilan **Sement ishlab chiqaruvchi korxonalarни ko‘mir yoqilg‘isiga o‘tkazish Rejasи** tasdiqlanganligini inobatga olib vada berolmasligini lekin nima yordam kerak bo‘lsa tayyorligini ma’lum qildi.

**6.** “**Qizilqum sement**” AJ tomonidan standartlarga to‘liq javob beradigan yuqori **yonuvchanlik** sifat ko‘rsatkichlariga ega **ko‘mir** resurslari mavjud emasligi, xususan xarid qilinayotgan ko‘mir mahsulotlarining 6000 kkal tavsiflanganligi, amalda mazkur ko‘rsatkichlarning yarmiga ham yetmayotganligini ma’lum qildi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi mutaxassisni J.Islamov hozirda O‘zbakistoda qazib olinayotgan ko‘mir sifati, talablarga javob berishini hamda ko‘mir mahsulotini sotish bo‘yicha sertifikatga ega korxonalar to‘g‘risida ma’lumot berilishini ma’lum qildi.

**7.** Sement ishlab chiqaruvchilar tomonidan joriy yil 1-oktabrdan **elektr va tabiiy gaz narxlari oshishi** sement narxlari oshishiga ta’sir qilishini inobatga olgan holda, sohada teng raqobat muhitini shakllantirish hamda bozorning to‘yinganligidan kelib chiqib, sement importiga o‘rnatilgan bojlarni qayta ko‘rib chiqish.

O‘zsanoatqurilishmaterillari” uyushmasi boshqaruv raisi o‘rinbosari **B.Ismoilov** tomonidan joriy yil **1-oktabrdan elektr va tabiiy gaz narxlari oshishi** sement narxlari oshishiga ta’sir qilishini inobatga olgan holda, sohada teng raqobat muhitini shakllantirish hamda bozorning to‘yinganligidan kelib chiqib, **sement importiga 2025 yilga qadar berilgan “0” bojaxona boji stavkasi** shaklidagi **imtiyozni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi** ma’lum qilindi.

**8.** “**Huaxin Jizzax syement**” MCHJ XK tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot oxirgi 2 yildan buyon “**Juma Samarqand sement**” MCHJ tomonidan **qalbaqilashtirilib** kelinayotganligi. Mazkur masalada tovar belgisi bo‘yicha yordam berilishi so‘raldi.

Bunda, Qo‘mita raisi o‘rinbosari F. Karabayev tomonidan - Samarqand viloyat hududiy boshqarmasiga Raqobat qonunchiligi doirasida o‘rganish insofsiz raqobat amaliyoti qo‘llanilganlik holati yuzasidan o‘rganish o‘tkazish, o‘rganish davomida aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan vakolat doirasida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda tegishli organlarga tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha takliflar kiritis bo‘yicha topshiriq berildi.

**9. “Surxondaryo Sherobod Syement” MCHJ PQ-3386-sonli qaror talablariga (“Olmaliq KMK ulushi mavjud”) asosan **100 foiz ishlab** chiqargan mahsulotini **birja orqali sotishi** belgilangan. Bundan tashqari, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi balansiga asosan kamida 50 foizi birjada sotishi belgilangan. Mazkur holat tushunmovchiliklarga sabab bo‘layotganligi ma’lum qilindi.**

Shu bilan birga, **elektr energiyasi** va **tabiiy gaz bo‘yicha oshirilgan tariflar** qo‘llanilayotganligini (“Olmaliq va Navoiy KMK” korxonalari uchun alohida oshirilgan tarif”) ma’lum qildi.

Mazkur holat bo‘yicha raqobat qonunchiligi doirasida o‘rganish tartibga solinadigan narxlarni noto‘g‘ri qo‘llanilganlik holati yuzasidan o‘rganish o‘tkazish hamda o‘rganish davomida aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan vakolat doirasida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi.

**10.** Ichki bozorda import sementning sifat ko‘rsatkichlari yuqoriligi, narxlari raqobatbardoshligi bo‘yicha iste’molchilarining tushunchasi shakllanganligi.

Shunga ko‘ra qo‘shni davlat chegara hududlarda joylashgan sement ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari, ichi bozorga kirib kelish bo‘yicha imkoniyatlarini o‘rganish, ularning narx jihatdan raqobatbardoshlilagini baholash bo‘yicha amaliy chora tadbirlarni amalga oshirish belgilab olindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tizimli muammolar belgilab olindi hamda asoslantiruvchi ma’lumotlar asosida takliflar ishlab chiqilib, umumlashtirilgan holda Hukumatga takliflar kiritilishi ma’lum qilindi.